

Adhamjon Teshakulov, Shuhratbek Yuldashev
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

**XORIJIY KAPITAL JALB QILISH ORQALI INVESTITSIYA
DASTURLARINI MOLIALASHTIRISHDA MOLIIYA BOZORI
MODELLARINING AHAMIYATI**

Annotatsiya. Maqolada rivojlangan mamlakatlarda xorijiy kapital jalb qilishning usullari va yo'llari, investorlar pul mablag'lari orqali investitsiya dasturlarini molialashtirishda moliya bozori modellarining ahamiyati o'rganilib chiqilgan. Shuningdek, investitsiyalarning hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi o'rinni, investitsion dasturlarni molialashtirish uchun xorijiy kapitalni jalb etishning ijobiy va salbiy tomonlari, moliya bozorlari modellari tarkibi tahlillar asosida keng yoritilgandir.

Kalit so'zlar: xorijiy kapital, investor, investitsiya dasturi, iqtisodiy rivojlanishi, kapital, kapital bozori, moliya bozori, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalar, risk, molialashtirish, milliy iqtisodiyot.

**ЗНАЧЕНИЕ МОДЕЛЕЙ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В
ФИНАНСИРОВАНИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОГРАММ ПУТЕМ
ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО КАПИТАЛА**

Аннотация. В статье рассматриваются методы и способы привлечения иностранного капитала в развитые страны, значение моделей финансового рынка в финансировании инвестиционных программ за счет средств инвесторов. Также на основе анализа широко освещены роль инвестиций в экономическом развитии регионов, положительные и отрицательные стороны привлечения иностранного капитала для финансирования инвестиционных программ, структура финансовых рынков.

Ключевые слова: иностранный капитал, инвестор, инвестиционная программа, экономическое развитие, капитал, рынок капитала, финансовый рынок, прямые иностранные инвестиции, портфельные инвестиции, риск, финансирование, национальная экономика.

THE IMPORTANCE OF FINANCIAL MARKET MODELS IN FINANCING INVESTMENT PROGRAMS THROUGH ATTRACTING FOREIGN CAPITAL

Abstract. The article examines methods and ways of attracting foreign capital in developed countries, the importance of financial market models in financing investment programs through investors' funds. Also, the role of investments in the economic development of regions, the positive and negative aspects of attracting foreign capital to finance investment programs, and the structure of financial markets are widely covered based on the analysis.

Key words: foreign capital, investor, investment program, economic development, capital, capital market, financial market, foreign direct investment, portfolio investment, risk, financing, national economy.

KIRISH

Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, investitsion loyihalar milliy iqtisodiyotni taraqqiy ettiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Jumladan, xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lib, ular mamlakatlarga infratuzilmani rivojlantirish, ishchi kuchi malakasini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Biroq, bu afzalliklardan samarali foydalanish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va davlat tomonidan samarali tartibga solish zarurdir. Shuningdek, milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning o'rnini alohida qayd etish joizdir. Yirik investitsiya dasturlarini moliyalashtirish uchun xorijiy kapitalni jalb qilish murakkab, lekin ayni paytda juda istiqbolli jarayon bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya dasturlarini moliyalashtirishda xorijiy kapitalni keng jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020 yildagi PF-5992-son "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" farmonida "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha, shu jumladan quyidagilarni nazarda

tutuvchi maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan: bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlari ulushini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish; 2025-yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitallariga zarur tajriba, bilim va obro'ga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish"[1] va shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida "Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash, iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish"[2] kabi vazifalar belgilab olingandir. Ushbu vazifalarni samarali ijrosini ta'minlashda investitsion siyosatni va xorijiy investitsiyalar oqimini optimallashtirish zarurdir.

Investitsion dasturlarni moliyalashtirish jarayonida, ayniqsa, chet el kapitalini jalb qilishda moliyaviy bozor modellari muhim o'rin tutadi. Shu sababdan, xorijiy kapitalni samaradorligi yuqori bo'lgan investitsion loyihalarga jalb etish hamda milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish hozirgi kundagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy kapital jalb qilish orqali investitsiya dasturlarini moliyalashtirish, iqtisodiyotda moliya bozori modellarining o'zni yuzasidan qator xorijiy va mahalliy olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarini olib borganlar. Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlardan Geng Huang, Xi Lin, Ling-Yun Helar o'zlarining "Good for the environment? Foreign investment opening in service sector and firm's energy efficiency" nomli tadqiqot ishlarida "Hozirgacha xizmat ko'rsatish sohasida xorijiy to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning atrof-muhitga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar hali ham to'liq emas. Darhaqiqat, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish mamlakatlar uchun iqtisodiy modernizatsiyani rag'batlantirish uchun muhim kuchdir, shuning uchun rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish juda muhimdir"[3] xorijiy investitsiyalarning atrof-muhitga ta'sirini o'rganganlar. Shuningdek, Umar Farooq "Rivojlanayotgan mamlakatlar turli xil rivojlanish loyihalarini amalga oshirish uchun doimo xorijiy moliyaviy yordamni izlaydilar. Bunday xorijiy moliyaviy yordam hukumatga sanoat sektori uchun subsidiyalarni

e’lon qilish imkonini beradi, bu esa korporativ innovatsion faoliyatga ijobiy ta’sir ko’rsatadi”[4]. Fikrimizcha, xar qanday sohaga xorijiy investitsiyalar zarur va ahamiyatlidir.

Iqtisodchi olim M.I.Beltyukova fikricha, “Zamonaviy sharoitda har qanday davlat iqtisodiyotining rivojlanishini samarali investitsiya faoliyatisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ilmiy-texnikaviy jarayonni, iqtisodiy o’sishni, qo’shimcha ish o’rinlarini yaratish va mavjudlarini saqlab qolishni, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni ta’minlaydi. Chet el investitsiyalarining eng ommabop shakli bo’lgan to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar mamlakatlarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga ega”[5]. Ushbu jihatlarni inobatga olganda, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga faol jalb etish taraqqiyot garovidir.

Iqtisodchi olim K.S.Permitina “Zamonaviy dunyoda investitsiyalar iqtisodiyotda muhim ro’l o’ynaydi, ular kelajakda daromad olishga qaratilgan ijtimoiy hayotning turli sohalariga hissa qo’shadi, har qanday sarmoyadan maqsad investitsiya qilingan mablag’lar kelajakda siz uchun ishlay boshlaydi, shuningdek, nafaqat o’zi uchun daromad keltiradigan, balki mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlaydigan loyihani rivojlantirishga hissa qo’shish imkoniyatidir. Har qanday tadbirkor ushbu muammoni hal qilishning asosiy yo’llari va vositalarini belgilab, puxta o’ylashga va o’z investitsiya loyihasining samaradorligini baholashga harakat qiladi”[6]. Bu orqali iqtisodchi investitsion loyihalarning mazmuni va ahamiyatini ifoda etgan bo’lib, bizningcha investitsiyalash samaradorligini oshirishda strategik rejalashtirish alohida ahamiyatga egadir.

Iqtisodchi olimlardan Utegenova Sarbinaz, Feruza Oralbaevalar qayd etishicha “Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy rivojlanish siyosatining muhim yo’nalishi hisoblanadi. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish vakolatiga ega bo’lgan milliy investitsiyalarni rag’batlantirish agentliklari tashkil etilgan va ular asosiy amalga oshirish masalalarini bayon qiladi, shuningdek, mintaq bo’ylab agentliklar uchun to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalarni jalb qilish va uning samaradorligini yanada oshirish uchun amaliy qo’llanmasi bo’lib xizmat qiladi”[7]. Shu sababdan, iqtisodchilar ta’kidlaganidek, “Investitsiyalarni jalb etish va biznesni yuritish shart-

sharoitlarini (qulay investitsion va ishbilarmonlik muxitini, kredit resurslarga erishish imkoniyatlarini, kreditlash va xalqaro savdo sohasidagi rasmiyatchiliklarni soddalashtirishni) ta'minlash, hududlarga investitsiyalarni jalb etish va ularni o'zlashtirishda soliq pereferensiyalarini berish bo'yicha normativ bazani takomillashtirish bilan bir vaqtda mahalliy xokimiyat organlarining qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha mas'uliyatlarini oshirish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish va uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri oshirish uchun xizmat qilishi mumkin"[8]. Investitsiyalar moliya bozorlari orqali kerakli sohalarga yo'naltiriladi.

Shoxa'zamiy Sh.Sh. "moliya bozori -bu moliya-kredit sohasining tarkibiy qismi bo'lib, real bazisiga ekvivalent moliyaviy instrumentlar (kreditlar, lizing, depozitlar, valyuta, qimmatli qog'ozlar, sug'urta va pensiya polislari, derivativlar va boshqa turdagi moliyaviy mahsulotlar) bilan bog'liq tashkillashgan iqtisodiy-huquqiy-informatsion mexanizm bilan ta'minlangan munosabatlarni iqtisodiyot subyektlari tomonidan maqsadli amalga oshirilishi uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo'luvchi tizim"[9]. Ushbu orqali moliya bozorining iqtisodiy ahamiyati yuqori ekanligini e'tirof etsak bo'ladi.

Iqtisodchi olimlar jamoasi S.Elmirzayev, F.Muxamedov, D.Abdikarimova, A.Karimovlarning fikricha, "Moliya bozori modeli – iqtisodiyotni moliyalashtirishning turli usullari va turli moliyaviy vositachilar rolining ahamiyatiga bog'liq holda bozorni tashkil etish tipidir. Iqtisodiyotni moliyalashtirishning ikkita asosiy usuli mavjud bo'lib, ular bank kreditlari yordamida moliyalashtirish hamda qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirishdir"[10]. Bizning fikrimizcha, xorijiy kapital jalb qilish orqali investitsiya dasturlarini moliyalashtirishda moliya bozori modellarining ahamiyati yuqori hisoblanib, milliy iqtisodiy barqarorlikka erishishda ulardan keng foydalanish zarurdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada xorijiy kapital jalb qilish orqali investitsiya dasturlarini moliyalashtirishda moliya bozori modellarining ahamiyatini to'liq ochib berish maqsadida Jahon banki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va boshqa ishonchli

manbalarning rasmiy statistik ma'lumotlari va tadqiqotlari natijasi asosida matematik statistik tahlil, ko'rsatkichlar monitoringi, kuzatuv kabi metodlar yordamida tahlillar amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion dasturlarni xorijiy kapitalni jalb qilish orqali moliyalashtirish turli jihatlar va mexanizmlarni o'z ichiga olgan muhim jarayondir. Investitsion dasturlarni moliyalashtirish uchun xorijiy kapitalni jalb qilish iqtisodiy o'sish va rivojlanish strategiyasining muhim elementi hisoblanadi. Xatarlarni to'g'ri baholash va investorlar uchun jozibador shart-sharoitlarni ishlab chiqishni ta'minlash bunday dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga va mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yildagi O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida "Investitsiyalar - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, jumladan, mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini, maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, ko'char va ko'chmas mol-mulkni, intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni o'z ichiga oladi"[11]. Yuqorida qayd etganimizdek, investitsiyalar barcha mamlakatlar uchun, ayniqsa, rivojlanish bosqichidagilar uchun asosiy moliyalashtirish manbai hisoblanadi va bunda tarixan shakllangan moliya bozori modeli muhim ahamiyatga egadir.

Xorijiy investitsiyalar mamlakatlar va hududlarning iqtisodiy rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Ularning ahamiyatining ba'zi asosiy jihatlari quyida ko'rsatib o'tilgandir(1-rasm).



1-rasm. Xorijiy investitsiyalarning hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi o'rinni

Investitsiya dasturlarini moliyalashtirishda xorijiy kapitalni keng jalb qilish masalalarini tadqiq etar ekanmiz, undagi “investitsion loyihalar” tushunchasi bo'yicha aniqlik kiritish lozimdir. Normativ-huquqiy hujjatlarda qayd etilganidek, “investitsiya loyihasi - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoki jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui, investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari -

markazlashtirilmagan manbalar hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari"[12]. Investitsion loyihalarni samarali amalga oshirishda uzoq yoki qisqa muddatli investitsiya dasturlari ishlab chiqiladi.

1-jadval

10 ta eng yaxshi global kapital loyihalari[13]

Investitsion loyihalar	Hudud	Loyiha menejeri/qurilish firmasi:	Tugallangan yil	Loyiha qiymati, mlrd. AQSH dollari
Burj Xalifa	Dubay, Birlashgan Arab Amirliklari	Samsung C&T	2010	1,5
Xalqaro kosmik stansiya	Past Yer orbitasi	NASA, Roskosmos, ESA, JAXA va CSA boshchiligidagi ko'p millatli loyiha	2011	150
Kanal tunneli	Folkestone, Buyuk Britaniya va Kokelles, Frantsiya o'rtasida	Trans Manche Link	1994	10
Uch dara to'g'oni	Sanduping, Yichang, Xubey, Xitoy	China Three Gorges Corporation	2012	28
Palm Jumeirah	Dubay, Birlashgan Arab Amirliklari	Nakheel Properties	2006	12
Gotthard Base Tunnel	Shveytsariya	Alp Transit Gotthard AG	2016	12
Gonkong xalqaro aeroporti	Chek Lap Kok, Gonkong	Mott MacDonald Group	1998	20
Akashi Kaikyo ko'prigi	Kobe, Yaponiya	Honshu-Shikoku Bridge Authority	1998	4,3
Xitoyda tezyurar temir yo'l tarmog'i	Xitoy bo'ylab	China Railway Corporation	2020	300
Sidney opera teatri: madaniy miqyosning ramzi	Sidney, Avstraliya	Ove Arup & Partners	1973	0,0102

Yuqoidagi jadval ma'lumotlarida dunyo bo'yicha eng samarali loyihalar keltirib o'tilgan bo'lib, jumladan, Xitoyda tezyurar temir yo'l tarmog'iga jami 300 mlrd. AQSh dollari yo'naltirilganligi e'tiborga molikdir.

Investitsion dasturlarni moliyalashtirish uchun xorijiy kapitalni jalb etishning ijobiy va salbiy tomonlari ham bor. Ijobiy tomonlari sifatida quyidagilarni e'tirof etsak bo'ladi:

- Mavjud resurslarni ko'paytirish: Chet el kapitali yirik loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar olish imkonini beradi.

- Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: Xorijiy investorlarni jalb qilish texnologiya, bilim va tajriba transferiga olib keladi, bu esa loyihalar samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

- Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish: Xorijiy sarmoyalarni jalb qilish moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi, bu esa ichki kapital va mahalliy moliya bozorlariga qaramlikni kamaytiradi.

- Obro' va imidjni oshirish: Xorijiy investorlarning mavjudligi kompaniya va uning loyihalariga ishonchni va xalqaro maydondagi obro'sini oshirishi mumkin.

- Yangi ish o'rinlarini yaratish: Xorijiy sarmoya ko'pincha yangi ish o'rinlari yaratilishiga, mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishiga olib keladi, bu esa iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladi.

- Jahon iqtisodiyotiga integratsiyani chuqurlashtirish: Xorijiy kapitalni jalb qilish mamlakatning jahon iqtisodiyotiga kengroq integratsiyalashuviga xizmat qiladi, bu esa yangi bozorlar va biznes imkoniyatlarini ochib beradi.

Chet el kapitalining salbiy tomonlari sifatida quyidagilardan iborat:

- Tashqi iqtisodiy sharoitga bog'liqligi: Mamlakatlar chet el kapitaliga qaram bo'lib, tashqi iqtisodiy inqirozlar va o'zgarishlarga zaiflashishi mumkin.

- Foydaning chiqib ketish xavfi: Chet ellik sarmoyadorlar foydani mamlakatdan olib chiqib ketishlari mumkin, bu esa mahalliy iqtisodiyotga ta'sir qilishi va soliq tushumlarini kamaytirishi mumkin.

- Siyosiy va iqtisodiy risklar: Chet el kapitalini jalb qilish, ayniqsa, xorijiy investorlar milliy suverenitetga tahdid sifatida qabul qilinsa, siyosiy va ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

- Manfaatlar to'qnashuvi: Xorijiy va mahalliy investorlarning turli manfaatlari yuzaga kelishi mumkin, bu esa nizolarga, hamkorlik shartlarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

- Mahalliy kompaniyalar uchun shartlar: Chet el kapitalini jalb qilish xorijiy kompaniyalar uchun raqobatdosh ustunliklarni yaratishi mumkin, bu esa mahalliy biznesga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xorijiy kapitalni jalb qilish banklarning investitsiya dasturlarini moliyalashtirishning muhim jarayoni bo'lib, ko'plab omillarni hisobga olgan holda kompleks yondashuvni talab qiladi. Kapitalni muvaffaqiyatli jalb qilish nafaqat bankning moliyaviy holatini yaxshilash, balki butun mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ham hissa qo'shishi mumkin.

Investitsion dasturlarni moliyalashtirish jarayonida, ayniqsa, chet el kapitalini jalb qilishda moliyaviy bozor modellari muhim o'rin tutadi. Investitsion dasturlarni moliyalashtirish jarayonida chet el kapitalini jalb qilishning asosiy jihatlari:

1. Risk va daromadni baholash. Moliyaviy modellar investorlarga turli investitsiya loyihalari risklari va kutilayotgan daromadlarni baholashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, mahalliy sharoit va bozor o'ziga xosligi bilan tanish bo'lmagan xorijiy investorlar uchun juda muhimdir.

2. Kapital qiymatini aniqlash. Modellar tashqi kapitalni jalb qilish xarajatlarini, jumladan, qarz olish xarajatlarini va aktsiyadorlarga kutilayotgan daromadni belgilaydi. Bu moliyalashtirish uchun optimal kapital tuzilmasini tanlashda yordam berishi mumkin.

3. Sezuvchanlikni tahlil qilish. Moliyaviy modellar investitsiya loyihalarining foiz stavkalari, valyuta kurslari va iqtisodiy sharoitlar kabi parametrlarning o'zgarishiga sezgiriligini tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bu xorijiy investorlarga ularning daromadlariga qanday omillar ta'sir qilishi mumkinligini tushunishga yordam beradi.

4. Investorlarni jalb qilish. Aniq tuzilgan moliyaviy modellar xorijiy kapitalni jalb qilishga yordam beradi, chunki ular loyiha haqida shaffof va ishonchli ma'lumot beradi. Xorijiy investorlar ko'pincha moliyaviy prognozlar va risklarni aniq tasavvur qilishga intilishadi.

5. Makroiqtisodiy omillarni baholash. Modellar inflyatsiya, YaIM o'sishi va valyuta kursining o'zgarishi kabi makroiqtisodiy omillarni hisobga olishga yordam beradi, bu ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsiya loyihalarini tahlil qilish uchun muhimdir.

6. Tartibga solish va sug'urtalash. Moliyaviy modellar tartibga solishning turli jihatlarini va risklarni sug'urtalash imkoniyatlarini hisobga olishi mumkin, bu esa xorijiy investorlar uchun investitsiyalarni yanada jozibador qiladi.

7. Qarorlarni qo'llab-quvvatlash. Moliyaviy bozor modellari ham investorlar, ham moliyalashtirishga intilayotgan kompaniyalar uchun asosli qarorlar qabul qilish uchun tahliliy asosni ta'minlaydi. Bu resurslarni yanada samarali taqsimlashga yordam beradi.

Xorijiy kapitalni jalb qilish investitsiya dasturlarini moliyalashtirish uchun katta foyda keltirishi mumkin, ammo ehtiyotkorlik bilan tahlil qilish va risklarni boshqarishni talab qiladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TDI)ning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olish va barqaror rivojlanishga yordam beradigan va salbiy ta'sirlarni minimallashtiradigan strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilganda, milliy iqtisodiyotda investitsion dasturlarni moliyalashtirish uchun xorijiy kapitalni jalb qilish iqtisodiy o'sish va rivojlanish strategiyasining muhim elementi hisoblanadi. Xatarlarni to'g'ri baholash va investorlar uchun jozibador shart-sharoitlarni ishlab chiqishni ta'minlash bunday dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga va mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Moliyaviy bozor modellari investitsiya dasturlarini baholash, tahlil qilish va optimallashtirish hamda xorijiy kapitalni jalb qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ular sarmoyadorlarga ham, kompaniyalarga ham shaffoflik va ishonchni ta'minlashga yordam beradi, bu esa pirovardida barqaror iqtisodiy o'sishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020 yildagi PF-5992-son "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.

3. Huang G., Lin X., He L. Y. Good for the environment? Foreign investment opening in service sector and firm's energy efficiency //Energy Economics. – 2023. – Т. 127. – С. 107063.

4. Umar Farooq Foreign financial support and corporate R&D investments: New panel data evidence, Transnational Corporations Review, Volume 15, Issue 4, 2023, Pages 13-21, <https://doi.org/10.1016/j.tncr.2023.07.001>. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1925209923000578>)

5. Бельтюкова М. И. Иностранные инвестиции: сущность и виды //ПРИЛОЖЕНИЕ К ЖУРНАЛУ «ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА МИИТ» № 1 (37)—2022 Статьи студентов и преподавателей Юридического института. – С. 21.

6. Пермитина К. С. Инвестиции в современном мире //Fundamental science and technology. – 2022. – С. 49-55.

7. Utegenova Sarbinaz, Feruza Oralbaeva. “O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishda mamlakatning investitsion muhiti jozibadorligini oshirish.” Журнал академических исследований нового Узбекистана 1.6 (2024): 131-134.

8. Sitorabonu Bahodir Qizi Rahmonova. “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish – iqtisodiy taraqqiyot garovi” Central Asian Academic Journal of Scientific Research, vol. 2, no. 4, 2022, pp. 186-192.

9. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar./Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012.- 440 b

10. S.Elmirzayev, F.Muxamedov, D.Abdikarimova, A.Karimov Moliya bozori va birja ishi: Darslik–T.: ООО«DIADEMA NUR SERVIS» 520 b.

11. O‘zbekiston Respublikasining 25.12.2019-yildagi O‘RQ-598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 14.01.2023 16-son
13. <https://www.mastt.com/blogs/top-10-capital-projects-worldwide>